

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

FUQAROLAR YIG‘INI RAISI (OQSOQOLI) SAYLOVI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O‘ZGARTISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 21-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2018-yil 27-sentabrda ma’qullangan

1-modda. 1992-yil 8-dekabrda o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 1, 4-modda; 1994-yil, № 1, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 3-4, 27-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 162-modda; 2008-yil, № 12, 637-modda; 2011-yil, № 4, 100-modda, № 12/1, 343-modda; 2014-yil, № 4, 85-modda; 2017-yil, № 4, 135-modda, № 5, 201-modda, № 8, 383-modda) 105-moddasining **birinchi qismidagi** “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 915–XII-sonli **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan O‘RQ-350-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 4, 96-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 7, 431-modda) quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

1) **21-moddaning:**

beshinci qismidagi “va ularning maslahatchilari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

oltinchi qismidagi “va mahallalardagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

2) **23-modda** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23-modda. Fuqarolar yig‘inining raisini (oqsoqolini) saylash

Fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) uch yil muddatga saylanadi.

Fuqarolar yig‘inining raisini (oqsoqolini) saylash tartibi qonunda belgilanadi”.

3-modda. Fuqarolar yig‘ini raisining (oqsoqolining) navbatdagi saylovi 2019-yil may oyida o‘tkazilsin.

Fuqarolar yig‘inlari amaldagi raislarining (oqsoqollarining) va ular maslahatchilarining vakolatlari muddati 2019-yil may oyida fuqarolar yig‘inlarining yangi raislari (oqsoqollari) saylanguniga qadar uzaytirilsin.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

5-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 15-oktabr,
O‘RQ-498-son

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.10.2018-y., 03/18/498/2051-son)